SHARTNOMA № 112
Joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha

2022 yil «19 » Sentyabr **Farg'ona shaxar.**

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi xamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi **Tez tibbiy yordam ilmiy markaz Farg'ona filiali nomidan v.v.b raxbar B.Mamadjonov** (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomondan va uz Nizomi asosida ish yurituvchi **"Qurish Optima" MChJ** (keyingi o'rinlarda «Ijrochi» deb ataladi) nomidan rahbar **D.Mirzaev** ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani kuyidagi ishlarni bajarish uchun tuzildilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI.

1.1. «Ijrochi» mazkur shartnoma shartlariga asosan: Markaziy TTYO va TTYO-1 bo'limlari binosini joriy tamirlash ishlarini loyixa-smeta xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda kabul kilib olib, to'lovlarni amalga oshiradi.

2. SHARTNOMA BAXOSI.

2.1. Mazkur shartnoma buyicha «Ijrochi» tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari kiymati loyixa-smeta xujjatlariga asosan barcha soliqlar, yigimlar va ajratmalarni uz ichiga olgan xolda jami 700 000 000 (Yetti yuz million) so'mni. Shundan KKS 15 % 91 304 347.82 tashkil etadi.
2.2. Zaruriy asoslar mavjud bulganda «Buyurtmachi» va «Ijrochi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga kushimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

3. XISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. «Ijrochi» tomonidan ta'mirlash ishlari tuliq bajarilgandan so'ng, uzaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlari kiymati uchun «Buyurtmachi» pul o'tkazish yuli bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. «Buyurtmachi» oldindan shartnoma umumiy summasini 30 % miqdorida tulovini «Ijrochi» xisob raqamiga utkazib beradi. Keyingi xisob-kitoblar xaqiqatda bajarilgan ishlar xajmiga qarab, avans mablag'larini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi.

4. ISHLARNI BAJARISh TARTIBI VA MUDDATLARI.

4.1. «Buyurtmachi» tomonidan oldindan tulov amalga oshirilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida «Ijrochi» tomonidan ta'mirlash ishlari boshlanishi shart. Bajarilishi lozim bulgan ishlar 2022 yil 27 oktyabr kuniga qadar tuliq yakunlanishi kerak.

4.2. «Ijrochi» bajariladigan ishlarni amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bulishini va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. «Ijrochi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mexnat muxofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilgan xolda amalga oshiradi.

5. TOMONLARNI HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. «Ijrochi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini tuliq xajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi.

5.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyixa-smeta xujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi.

5.3. «Buyurtmachi» tomonidan «Ijrochi»ga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratib beriladi va bajarilgan ishlar buyicha tuzilgan Shakl-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. Bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, «Buyurtmachi» tomonidan dalolatnoma rasmiylashtiriladi va **10** kun muddatda «Ijrochi»ga xabar yuboriladi. «Ijrochi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar uz mablag'i va uz kuchi bilan **10** kun davomida bartaraf etiladi.